

## Talabalarning figurali kompozitsiya ishlashda naturadan qarab ishlashning ahamiyati

Bobur Abdugʻani oʻgʻli Nabiyeu  
nabiyevbobur6677@gmail.com  
Namangan davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Rangtasvir darslarida talabalarga figurali kompozitsiya yaratishda naturadan qarab ishlash, uning bosqichlari, rangtasvir asarlarini yaratishda figurali kompozitsiyaning oʻziga xosligi haqida boradi.

**Kalit soʻzlar:** kompozitsiya, postonovka, ritm, kontrast, element, moy-boʻyoq, rang, hajm, kolorit

## The importance of working according to nature in the performance of student figure composition

Babur Abdugani oğlu Nabiyeu  
nabiyevbobur6677@gmail.com  
Namangan State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article will tell students about the nature of the work on the creation of a figurehead composition, its stages, the originality of the figurehead composition in the creation of works of art.

**Keywords:** composition, postonovka, rhythm, contrast, element, oil-paint, color, volume, color

Kompozitsiya darslarida inson qomatini chizib oʻrganish ham talabalarda figurali kompozitsiya tuzishda muhim oʻrin tutadi. Kompozitsiyaning asosiy vazifasi talabalarda ijodiy fikrlashni, sanʼatni idrok etishni va tahlil qilishni, hayotni kuzatish va obrazli tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakllantirish, ularni badiiy - pedagogik faoliyatiga tadbiiq qilishdir. Insonning toʻliq figurasini oʻrganish uchun talabalar avvalo plastik anatomiya fani haqida tushuncha, bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishlari lozim.

Portret - inson obrazini yaratishda eng murakkab janr hisoblanadi. Maʼlumki har bir davrning usta rassomlari boʻlgan. Ular portret asarlarida zamondoshlarining goʻzal qiyofasini obrazlarini yaratib, keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan.

Inson gavdasi nafaqat portret janrida balki maishiy, tarixiy, botal janrlarida ham aks ettiriladi. Har bir rassom oʻzining ijodiy asarini yaratishda oʻz tajribasi va usuliga

tayanadi. Bunga har-xil kutilmagan xolatda, rang va texnikada bajarilgan portretlar dalil bo'la oladi. Bunga misol qilib, rassom Rahim Ahmedovning "Ona o'ylari" asarini olishimiz mumkin. Rus rassomlaridan V.Serov, I.Repinning asarlarida ham kompozitsiya masalalari ajoyib tarzda yoritilgan.

Demak, talabalar figurali kompozitsiya tuzishlari uchun inson gavdasini naturadan ishlab o'rganishlari lozim. Portretlarda konkret bir odamni barcha xarakterli hususiyatlari, tashqi ko'rinishi, ichki kechinmalari, o'y-hayollari va mimikasi aks etadi va uning yoshi qaysi kasb egasi ekanligini tasvirda aniq aks ettirish lozim.

Portretning yana bir murakkab jihatlaridan biri bu qo'ldir. Qo'l harakteri bilan yuzning harakterining murakkabligi bir-xil. Masalan: Kompozitsiya darslarida talabalarga "Chevar qiz" mavzusida kompozitsiya ishlash uchun figura "Chevar qiz" mavzusiga mos qilib tanlanadi. Chevar ish jarayonida qanday kiyimlar kiyadi va ularning ish jarayonini kuzatish kerak bo'ladi. Uning eng harakterli bo'lgan holatini topish lozim. Uning chevar ekanligini ifodalaydigan fon chevarchilik asbob uskunalari bo'lishi mumkin. Naturani yahshilab kuzatib, avval turli hil holatlarda qoramalar ishlanadi. Chunki bu nabroskalar orasidan eng mukammal chiqqani tanlab olinib, kompozitsiyada foydalanish mumkin. Portretni ishlash jarayonida rassom eng avvalo kompozitsiya mavzusidagi inson tanishib, bir muncha davrda uni kuzatishi, suhbatlashib, uning asosiy harakteri, xususiyatlarini, ichki va tashqi dunyosini o'rganishi kerak bo'ladi.

Asosiy figuraning rassom tomonidan topilgan mimika, turli dinamik va plastik holatlar qo'shimcha detallar bilan mustahkamlanib, umumlashtiriladi. Detallarning ishtirokida uning o'rnini o'z joyiga qo'yish katta ahamiyat kasb etadi.

Inson qomatini ishlashda shakllarning nisbatlari va chiziqli-konstruktiv tuzilishini yengil shtrixlash orqali aniqlab olish rassomdan bir vaqtning o'zida butun rasm ustida uzoq vaqt ishlashni talab etadi. Oddiygina natyurmort qo'yilmasini ishlashdan tortib, murakkab holatdagi bo'lgan inson qomatini tasvirlashda ushbu qonun-qoidalarga katta e'tibor qaratiladi. Ko'pchilik hollarda yosh rassom bir tartibda ishlamaydi, umumiy shakldan ko'ra uning qismlariga ko'proq e'tibor qaratadi va har bir elementning mohiyatini tushunib yetmaydi. Talaba agar tasvirni to'liq ko'ra olsa va «umumiydan - qismlarga va qismlardan - yana umumiyga» tamoyilidan foydalangan holda tasvirlashdagina ish samarali bo'lishi mumkin. Doimiy ravishda qismlarni umumiy yaxlitlik bilan tasvirlab ish yuritish bir vaqtning o'zida suratning har bir qismini birdek kuzata olish imkonini beradi.

Bundan tashqari talabalar kompozitsiya ishlashda eskiz ishlash bilan bir qatorda rangli etyudlar ishlashlari lozim. Etyudda portretning eng harakterli joylarini ishlanadi. Bundan tashqari chevarchilik ustaxonasi, chevarchilikka mos bo'lgan muhit aks etishi kerak bo'ladi. Moybo'yoq texnikasida ranglar to'qdan ochga qarab ishlash boshlanadi.

Mato yuzasni to'liq rang bilan qoplab olinishi maqsadga muvofiqdir. Shunda keyingi bosqichda qo'yilgan ranglarning mutanosibligini aniqlash oson bo'ladi. Yorug' soya, materiallik, hajmga e'tibor beriladi. "Chevar qiz" kompozitsiyasida kompozitsion markazida uning ish jarayoni aks ettiriladi. Bundan tashqari planlilikka e'tibor berilishi lozim. Kompozitsion markazdagi chevar portretiga qolgan detallar bo'ysunishi lozim. Ishning yakuniy bosqichida detallarning rangi yahlit holatga keltiriladi va bir xil koloritga bo'ysundiriladi. Agar talabalar yuqorida aytib o'tilgan qoidalar asosida ijodiy ishni bajarisa tuzilgan kompozitsiya va uning bajarilishi mukammal bo'ladi.

Kompozitsiyani asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish.

Ritm bu - kompozitsiyaning hayotiy bo'lishida o'zaro aloqasini aniqlab beradi. Bu bilan rassom asardagi tashqi harakatlarni ko'rsatish bilan chegaralanib qolmasdan balki, uning ichki harakatlarini yuzaga chiqaradi.

Kompozitsiya fani ma'ruza va amaliy qismdan iborat bo'lib, ma'ruzalar auditoriyadagi bajariladigan amaliy mashg'ulotlarni, uy vazifalarini hamda mustaqil ishlarni ongli ravishda bajarishni idrok etadi. Fanning kirish qismida kompozitsiya fanining asosiy qonun - qoidalari, texnika, texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'atni janrlari hamda turlaridagi kompozitsiyalar ishlash fanning o'ziga xos muammolarini, asarlardagi mavjud qonun-qoidalar va talablarini ifodalaydi.

Figurali kompozitsiyalarni ishlashda asosiy urg'uni kompozitsiyaning mazmunga o'oyasiga qaratish lozim. Buning uchun esa ko'proq qoralama va etyudlar ishlash kerak. Chunki etyudlar ishlash bo'lajak rassomning ranglarni his qilish, tez fikrlash qobiliyatini oshiradi. Demak ijodiy ish yaratish jarayonida juda ko'p qoramalar, etyudlar, eskizlar ishlar asarning mukammal bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shularni aytish mumkinki, talabalar rangtasvir darslarida figurali kompozitsiya ishlashda ko'proq qoralama eskizlar, rangli etyudlarni bajarish, kompozitsiya qoidalariga rioya qilish va portretchi rassomlar asarlarini tahlil qilish orqali ijodiy ishni bajarilsa, ijodiy ish har tomonlama mukammal bo'lib, kuzatuvchini ham o'ziga jalb eta oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boymetov. B Kompozitsiya asoslari fanidan B.G.F talabalari uchun o'quv qo'llanma Toshkent 2002-y
2. A.Turdaliyev. Kompozitsiya B.G.F. talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent-2003 y
3. M.Abduraxmonov. Kompozitsiya asoslari B.G.F. talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent-2002 y

4. Boymetov B. "Qalamtasvir". Darslik 1 - qism. Toshkent, 2006.
5. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). T., 2002.
6. B.Tojiev " Rangtasvir" fanidan ma'ruzalar matni. ( Nizomiy nomli TDPU ) 2000 yil Toshkent.
7. Babur, N., Muazzam, N., & Shahrizoda, A. (2024). THE UNIQUENESS OF WORKING WITH GEOMETRIC OBJECTS IN PENCIL DRAWING CLASSES. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(2), 62-66.
8. Бобур, А. Ў. Н. (2022). Тасвирий санъат асарларини яратишда композиция қонунларининг илмий асосларидан фойдаланиш. *Science and Education*, 3(2), 1087-1095.
9. oglu Nabiyev, B. A. Talabalarda kompozisiya tuzish va tasvirlash mahoratlarini takomillashtirishda shakllarni masofada ko'rish texnologiyalarini rivojlantirish.
10. Boltabayevich, B. A. O. N. B. Baimetov. Technologies for Improving the Composition of Students in the System of Higher Pedagogical Education 2021/4. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, (03), 64-70.
11. Komoldinov, S. (2023, December). QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE* on the topic: □ Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions □ (Vol. 1, No. 01).
12. Rakhimov, K. (2023). THE PLACE OF GRAPHICS IN THE FINE ARTS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(2), 5-8.
13. Rakhimov, K. (2023). THE ROLE OF PORTRAIT ARTISTS IN FINE ARTS. *Models and methods in modern science*, 2(2), 13-19.
14. Boltaboyev A. BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". □ 2023. □ T. 1. - №.
15. Badirdinov D.Sh. Tasviriy san'at darslarini boshqa o'quv fanlari bilan bog'lanishi. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2021-yil 1-son
16. Adhamjon o'g'li, O. M. (2024). BOLALARNING TASVIRIY FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH, USLUB VA YO 'NALISHLARI, SINFDA TASVIRIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(20), 115-121.
17. Bobur Abdug'ani o'g, N. (2024). The Theoretical and Practical Importance of Performing a Still Life with a Plaster Socket in Painting Classes. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(10), 354-357.